

OILADA BOLAGA JISMONIY TARBIYA, ESTETIK TARBIYA, EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISH

Qobilova Madina Sobir qizi

Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang`ich ta`lim fakulteti boshlang`ich ta`lim
yo`nalishi 21-04-guruh 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Jismoniy tarbiya va sport hayotda shunchalik muhimki, uni ortiqcha baholab bo'lmaydi. Har bir inson, boshqalarning yordamisiz, o'z shaxsiy hayotida jismoniy tarbiya va sportning ahamiyatini o'rganishi va qadrlashi mumkin. Ammo bularning barchasi bilan jismoniy tarbiya va sportning milliy ahamiyatga ega ekanligini unutmasligimiz kerak, bu haqiqatan ham millatning kuchi va salomatligidir.

Kalit so`zlar: Jismoniy tarbiya, Estetik tarbiya, Ekologik tarbiya.

Oilada bolaga jismoniy tarbiya, estetik tarbiya, ekologik tarbiyani shakllantirish lozim. Jismoniy tarbiya, badan tarbiya — sog`liqni mustahkamlashga, odam organizmini uyg'un ravishda rivojlantirishga qaratilgan umumiy tarbiyaning uzviy qismi. Jamiyatdagi jismoniy madaniyat ahvolini bildiruvchi ko'rsatkichlardan biri. Jismoniy tarbiyaning asosiy vositalari: jismoniy mashg'ulotlar, organizmni chiniqtirish, mehnat va turmush gigiyenasi. Jismoniy tarbiya aqliy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiya b-n qo'shib olib boriladi.

Jismoniy tarbiya. Jismoniy jihatdan to'g'ri rivojlanish. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning yoshi, jinsiga muvofik keladigan (kuch, tezkorlik, chaqqonlik, chidamlilik, sabot, mehnat, chidam, iroda va xarakteri qaror toptirish) asosiy harakat sifatlarini rivojlantirish.

Estetik tarbiya. Boshlangich sinf o'quvchilarida estetik his-tuyg'u, estetik didni tarbiyalash, ularning ijodiy qobiliyatlari, estetik ehtiyojlari va go'zallikni sevish, go'zallikka intilish tuyg'ularini rivojlantirish, estetik madaniyatni shakllantirish.

Ekologik tarbiya. O'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarini qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish.

O'zbekistonda jismoniy tarbiyaga juda qadimdan salomatlikni mustahkamlashning asosiy vositasi deb qaralgan. Mahmud Qoshgariyning "Devonu lug'otit turk" asarida 100 dan ziyod xalq o'yinlari to'g'risida ma'lumot berilgan. "Alpomish" o'zbek xalq qahramonlik dostoni, Alisher Navoiyning "Farxod va Shirin", Zayniddin Vosifiyning "Badoye ul-vaqoye" ("Nodir voqealar"), Boburning "Boburnoma" asari va b.da jismoniy, jangovar mashqlar, kuchlilik bahsmunozaralarining xilma-xil namunalaridan hikoya qilinadi. Jismoniy tarbiyaning keng tarmoqli tizimi: oilaviy-maktabgacha davr (chaqaloqlikdan boshlab bog'cha yoshidagi), maktab yoshi, o'rta maxsus va oliy ta'lim davri hamda katta yoshdagi (erkak va ayol)lar jismoniy tarbiyasini o'z ichiga oladi. O'zbekistonda umumta'lim maktablaridagi jismoniy tarbiya pedagogik jarayon hisoblanib, jismoniy tarbiya darslari, sport seksiyalaridagi mashg'ulotlar orqali amalga oshiriladi. "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun jismoniy tarbiyadan davlat ta'limi standarta" bo'yicha 1 — 9-sinflarda haftasiga 2 soatdan jismoniy tarbiya darslari joriy etilgan. O'quvchi-yoshlar o'rtasida jismoniy tarbiyani yanada ommalashtirish va ularning salomatligini mustahkamlash maqsadida 1999-yilda maxsus test sinovlari ishlab chiqildi. Mazkur testlarni muvaffaqiyatli topshirganlar uchun 3 darajali "Alpomish" va "Barchinoy" nishonlari ta'sis etildi. 1.588.298 nafar o'quvchi mazkur testlarni muvaffaqiyatli topshirdi (2002). Shuningdek, maktab o'quvchilari uchun "Umid nihollari", litsey-kollej o'quvchilari uchun "Barkamol avlod", oliy o'quv yurti talabalari uchun "Universiada" ommaviy musobaqalarini har 2 y.da o'tkazish yo'lga qo'yildi. Xalq o'yinlari va ommaviy sport turlari bo'yicha qar 2 y.da "Alpomish o'yinlari" festivali hamda "To'maris o'yinlari" o'tkazib kelinadi.

Estetik tarbiyaning asosiy tushunchalaridan biri go'zallik kategoriyasidir. Uning ma'nosini talaba-yoshlarga tushuntirish ham mazkur tarbiyaning hayotiyligini ta'minlashga katta yordam beradi. Shu sababli go'zallik tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berishga quyidagicha yondashuvlar qilishni maqsadga muvofiq deb topdik:

- go'zallik - bu kishining qalbi go'zalligi;
- go'zallik - bu kishining istarasi issiqligi;
- go'zallik - bu kishining go'zal xulq egasi bo'lishi;
- go'zallik - bu bamisoli daraxt, yaprog'i - axloq, ildizi - ichki dunyo, mevasi-yaxshi fazilat. Xullas, odam bolasidagi go'zallik - tabiat ato qilgan husn-jamolidan tashqari, yana eng yaxshi xulq-atvorni, insondagi eng yaxshi fazilatlarni o'z ichiga olgan odamiylikdan iborat (Mirzakalon Ismoilij).

Ekologik tarbiya atrof-muhitga bo'lgan e'tibor, tozalik demakdir. Oilada bolaga tozakorlikni o'rgatish lozim. Bolani toza kiyinishi, toza yurishi, atrofni toza tutishi bularning barchasi tozalik demakdir.

Bolalarga ekologik ta'lim va tarbiya berish – hozirgi zamonning o'ta muhim muammosi hisoblanadi: insonlarning ekologik tafakkuri va ekologik madaniyatigina sayyoramizni va insoniyatni bugungi inqirozdan olib chiqishga yordam beradi.

Davlat darajasida ekologik ta'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat, deb belgilangan:

- bolalarda va ularning ota-onalarida (qonuniy vakillarida) ekologik madaniyatni, o'z ona zaminiga, O'zbekiston va jahonning tabiiy boyliklariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni rivojlantirish;

- tabiiy resurslarning holati uchun mas'uliyat tuyg'usini, atrof-muhitdan oqilona foydalanish ko'nikma va malakasini, atrof-muhitga zarar yetkazuvchi harakatlarga nisbatan muhosasiz munosabatni tarbiyalash.

Xulosa qilib aytganda, bolada jismoniy tarbiyaning ham estetik tarbiyaning ham ekologik tarbiyaning ham ahamiyati katta. Ularni hayotda sog'lom yashashiga katta yordam beradi. Har bir bolaga bu tarbiyalarni shakllantirish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Safarov O., Maxmudov M. Oila ma'naviyati. T. «Ma'naviyat» 1998.
2. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. Toshkent, O`zbekiston-1996.
3. Ma'naviyat yulduzlari. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti. T.-1999.
4. Imomnazarov M. va boshqalar. Milliy ma'naviyatimiz asoslari. Toshkent islom universiteti. T.-2001.
5. Tursunov I.Y. Pedagogika kursi. T. «O`qituvchi». 1997.
6. Munavvarov A. Pedagogika T. O`qituvchi 1996.
7. A. Zunnunov. Pedagogika tarixi. T. O`qituvchi. 2000.